



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIM DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

X.I. Yusupova¹

N. Tursunova²

¹Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, PhD, professor v.b.,

²Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2 - bosqich talabasi

¹e-mail: XabibaYusupova@utas.uz,

²e-mail: n.tursunova2005@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14884361>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning ahamiyati, inklyuziv ta'lim tushunchasining mohiyati, uning bolalar ijtimoiy moslashuvi, individual rivojlanishi hamda jamiyatda bag'rikenglikni shakllantirishdagi roli o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish tajribasi va istiqboldagi vazifalar, oila a'zolari va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarning muhimligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, individual yondashuv, ijtimoiy moslashuv, maxsus pedagogika.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение организации инклюзивного образования в дошкольных образовательных учреждениях, сущность понятия инклюзивного образования, его роль в социальной адаптации детей, индивидуальном развитии, формировании толерантности в обществе. Также описан опыт внедрения инклюзивного образования в Узбекистане и будущие задачи, важность взаимоотношений между членами семьи и сотрудниками.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дошкольное образование, дети с особыми потребностями, индивидуальный подход, социальная адаптация, специальная педагогика.

Abstract: This article examines the importance of organizing inclusive education in preschool educational institutions, the essence of the concept of inclusive education, its role in children's social adjustment, individual development, and the formation of tolerance in society. Also, the experience of introducing inclusive education in Uzbekistan and future tasks, the importance of relationships between family members and employees are described.

Key words: Inclusive education, preschool education, children with special needs, individual approach, social adaptation, special pedagogy.

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Nafaqat sog'lom bolalarga, balki, imkoniyati cheklangan bolalarning ham talim olishlari uchun davlatimizda barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni erta ijtimoiy hayotga tayyorlash, ta'lim olish sifati yaxshilash maqsadida ko'plab yangidan yangi loyihalar amalga oshirilmoqda va bulardan biri inklyuziv talim hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni sog'lom tengdoshlari qatorida ta'lim olishi, ular bilan do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvni yengillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim global ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida shakllanib bormoqda. Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga ta'lim va tarbiya berish muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash inson huquqlari doirasidagi muhim vazifalardan biri bo'lib, bu masala ayniqsa maktabgacha ta'lim bosqichida katta ahamiyatga ega. Chunki, maktabgacha ta'lim bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish orqali esa, maxsus ehtiyojga ega bolalar hamda boshqa bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish mumkin.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalika ta'lim olishga haqli hisoblanadi. Ta'limdagi inklyuziv ta'limni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilish lozim. Chunki, maxsus



ehtiyojli bolalar har tomonlama ijtimoiy tomondan yordamga muhtoj bolalar hisoblanadi. Bunday nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishimiz darkor. Sababi bu bolalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish ularning infantillik xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi.

Bunday bolalar ham sog'lom bolalari bilan yonma-yon o'qishi, tarbiyalanishi huquqiga ega ekanligi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham ta'kidlab o'tilgan. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlaydi va amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat olib borsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi shundaki, bunday bolalarga ta'lim va tarbiya berish barcha pedagoglarni majburiyati hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda hamkorlikda faoliyat olib borilsa ta'lim samarali natija beradi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan xalqaro hujjatlar, jumladan, BMTning "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" va YUNESKOning "Ta'limda xilmaxillikni qo'llab-quvvatlash" tamoyillari, har bir bolani individual ehtiyojlariga ko'ra ta'lim tizimiga jalb qilishni ta'minlashga undaydi. O'zbekiston ham inklyuziv ta'limni rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga olib chiqib, ushbu yo'nalishda faol ish olib bormoqda.

Maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuvni amalga oshirish faqat maxsus ehtiyojga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash emas, balki barcha bolalar o'rtasida ijtimoiy tenglik va bag'rikenglik muhitini yaratishni ham anglatadi. Shu sababli, mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishning ahamiyati, amaldagi tajribalar va uchraydigan qiyinchiliklar o'rganiladi hamda mazkur masalani hal qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Masalaning qo'yilishi va yechilish usuli

Inklyuziv maktabgacha ta'lim dasturlarida o'qituvchilar barcha o'quvchilarni qamrab oladigan tipik va atipik rivojlanish va o'qitish usullarini bilishlari kerak. Talabalarga xizmat qilish va himoya qilish uchun ular bolalar, oila a'zolari va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarning muhimligini tushunishlari kerak. Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadi har bir bolani maktabda ham, keyingi hayotda ham muvaffaqiyatga erishishga tayyorlashdir.

Inklyuziv ta'lim deganda barcha bolalar, ularning jismoniy, intellektual, hissiy yoki ijtimoiy farqlaridan qat'i nazar, yagona ta'lim tizimida o'qib, rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Ushbu yondashuv bolalar ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta'lim shakllarini qo'llab-quvvatlash, ularga teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy integratsiyaga yordam berishni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — har bir bolaning qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ular uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashdir.

Inklyuziv ta'limning mohiyati uning barcha bolalar uchun ochiq bo'lgan ta'lim muhitini yaratishida ko'rinadi. Bu yondashuv nafaqat jismoniy yoki intellektual cheklolarga ega bolalarni qamrab oladi, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan noqulay sharoitlarda yashovchi bolalar hamda qobiliyati o'ziga xos bo'lgan boshqa bolalarni ham o'z ichiga oladi. Shu orqali barcha bolalar birgalikda ta'lim olib, bir-biridan o'rganish va ijtimoiy o'zaro munosabatlar orqali rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim g'oyasi ko'plab xalqaro hujjatlarda o'z ifodasini topgan, jumladan, BMTning "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"da ta'limga teng huquq va imkoniyatlar yaratish zarurligi alohida ta'kidlangan. YUNESKO tomonidan ilgari surilgan "Hamma uchun ta'lim" konsepsiyasi ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish tamoyillarini asos qilib olgan.

Maktabgacha ta'lim bosqichida inklyuziv yondashuv bolalarni erta yoshdan ijtimoiy moslashuv jarayoniga tayyorlash, ularning o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishini ta'minlash va ularning imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, inklyuziv ta'limni joriy qilish nafaqat ta'lim tizimini, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil qilish zarurati.

Maktabgacha ta'lim bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dastlabki va eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda bola nafaqat intellektual va psixologik qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ijtimoiy muhitga



moslashish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish bugungi kun talablaridan biridir. Barcha bolalar, shu jumladan, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar, teng sharoitlarda ta'lim olish huquqiga ega. Ushbu zarurat bir necha muhim omillar bilan asoslanadi:

1. Har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash

BMTning "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida har bir bolaning ta'lim olish huquqi ta'kidlangan. Inklyuziv ta'lim ushbu huquqni ta'minlashning muhim vositasidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil qilish orqali maxsus ehtiyojga ega bolalar o'z tengdoshlaridan ajralmasligi va umumiy ta'lim jarayoniga jalb qilinishi ta'minlanadi.

2. Bola rivojlanishida individual yondashuv zarurati

Har bir bola o'ziga xos qobiliyat va ehtiyojlarga ega. Inklyuziv ta'lim bu ehtiyojlarni hisobga olgan holda individual yondashuvni qo'llash imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv yondashuvni joriy etish bolalar uchun qulay muhit yaratib, ularning intellektual, psixologik va jismoniy rivojlanishiga yordam beradi.

3. Ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari hayotiy ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim orqali bolalar birgalikda o'qish va o'ynash orqali o'zaro muloqot qilish, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar. Bu esa jamiyatda bag'rikenglik va o'zaro hurmat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Nogiron bolalarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etish orqali nogiron bolalar jamiyatning faol a'zolari bo'lib shakllanishi uchun sharoit yaratiladi. Ularning umumiy ta'lim jarayonida ishtirok etishi diskriminatsiya va cheklovlarning oldini olishga yordam beradi.

5. Ta'lim tizimining samaradorligini oshirish

Inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilishi pedagoglarni individual yondashuv va innovatsion usullarni qo'llashga undaydi. Bu nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki boshqa bolalar uchun ham ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Natijalar va namunalalar

O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan:

- Toshkent shahrida sinov tariqasida bir nechta maktabgacha ta'lim tashkilotida maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun inklyuziv guruhlar tashkil qilindi. Ushbu guruhlarda bolalar bilan defektologlar, psixologlar va logopedlar ishlamoqda.
- Maxsus treninglar orqali pedagoglarning inklyuziv ta'lim sohasidagi malakasi oshirilmoqda. Sifatli inklyuzivda maktabgacha ta'lim tashkilotida nimalarga e'tibor berish kerak?
- Ota-onalar, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilari va maxsus ta'lim o'qituvchilari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bolalarning ehtiyojlarini aniqlash uchun birgalikda ishlaydi.
- Dastur amaliyotlari tadqiqotga asoslangan va madaniy, lingvistik va rivojlanishga mos keladi.
- Bolalar kun tartibi davomida bir-birlari bilan ishlash va o'ynash imkoniyatiga ega.
- Butun bolaga e'tibor qaratiladi.
- Maktabgacha ta'lim tashkiloti oilalar bilan samimiy va doimiy munosabatlarni ta'minlaydi, ularning ehtiyojlariga e'tibor beradi.
- Oilalar va jamoalar bilan hamkorlik va hamjihatlik mavjud.
- Maktabgacha ta'lim tashkiloti barcha bolalar uchun yaxshi natijalar uchun javobgardir. Pedagoglar inklyuziv maktabgacha ta'lim muhitida muvaffaqiyatni qanday rag'batlantirishlari mumkin?
- Yosh nisbati pastligini va odatiy rivojlanayotgan va rivojlanishda nogironligi bo'lgan bolalarning sakkizdan ikkiga nisbatini maqsad qilib oling.
- Umumiy maktabgacha va maxsus ta'lim sohasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlash.



- Ota-onalarni sherik sifatida qidiring.
- Pedagoglarni rivojlantirish va ota-onalarni o'qitishga yordam berish.
- Pedagoglar rivojlanishga mos keladigan natijalarni tushungan holda faoliyatni rejalashtirishlarini ta'minlang.
- Ma'lumotlarni aniqlashtirish, ko'rib chiqish uchun muntazam ravishda uchrashuvlarni rejalashtiring. Bu esa, pedagoglar maqsadlariga erishishda yordam beryaptimi yoki yo'qligini aniqlashga yordam beradi va tadqiqotga asoslangan madaniy, lingvistik va rivojlanishga mos keladigan strategiyalarni qo'llaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa, albatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil qilish zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim bosqichidir. Bu yondashuv orqali nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarga, balki barcha bolalarga sifatli ta'lim olish va jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli, inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv va tizimli islohotlar zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312 qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-fevralda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-74-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.
4. *Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiya*. BMT. (2006).
5. *Salamanka deklaratsiyasi va harakat dasturi: Inklyuziv ta'limni rivojlantirish tamoyillari*. YUNESKO. (1994). Salamanka, Ispaniya.
6. Ganiyeva M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda TRIZning imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.
7. Yusupova X.I. Boshlang'ich ta'limda ochiq topshiriqlar orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish. Uslubiy qo'llanma. 2023 y. 3 b.t.
8. **Yusupova X.I., Xasanova M.S. Trends in the Development of primary Education in Uzbekistan during the years of independence.** "Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro olimlar ishtirokidagi respublikasi ilmiy-amaliy konferensiya materiali. – T.:TAFU, 19-21 dekabr, 2023- yil. -B. 783-785.
9. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. - М.: Мозаика-Синтез, 2011. - 144 с.
10. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi". O'quv va metodik qo'llanma. 2014-yil.
11. F.B. Umarova. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish. Scientific progress. Scientific Journal ISSN: 2181-1601 VOLUME 1 I ISSUE 3 I 2021.